

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

Guliston davlat universiteti

filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 6-
7-13-guruh talabasi

Shamsiyeva Mamlakat

“O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi” fanidan tayyorlagan

Kurs ishi

Qabul qildi: Muzaffar Mamatqulov

Гулистон-2015 й

Mavzu: Mashrab hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi manbalar

Reja:

Kirish

1 Boborahim Mashrabga bag'ishlangan manbalar.

2 "Singan setor" asarida Mashrab timsoli

3 Mashrabshunos Ismatilla Abdullayev. Yana Mashrab haqida

Xulosa

O'tmishdagi shoirlar orasida xalq ommasi ichiga Mashrabdek kirib borgan va shuhrat topgan ikkinchi bir shoirni topish qiyin. Mashrab xalq xotirasida qalamidan ilohiy she'rlar to'kilgan shoirgina emas, ikkiyuzlamachilikning, soxtakorlikning, nafsga qullikning shafqatsiz dushmani sifatida ham qolgan. Uning hayoti, sarguzashtlari haqida ko'pdan-ko'p rivoyatlar to'qilgan. Ularning qay biri haqiqatga yaqinligi haqida bir nima deyish qiyin. Shuning uchun uning tug'ilgan yili va joyi masalasida ham har xilliklar bor. Masalan, Mashrabning tug'ilgan yili goh 1640, goh 1657, goh 1653-yil deb ko'rsatiladi. Adabiyotshunoslarning keyingi tadqiqotlari shoirning 1653- yilda tug'ilganligi haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatmoqda va ilmiy iste'molda ko'proq shu sanaga to'xtalinadi. Shuningdek, shoirning qayerda tug'ilganligi ham ko'p bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Ayrim mutaxassislar rivoyatlarga tayanib, uni Andijonda tug'ilib, Namanganda voyaga yetgan desalar, boshqalari she'rlaridagi ma'lumotlarga asoslanib, shoir Namanganda dunyoga kelib, shu yerda ulg'ayganligini aytadilar.

Mashrab haqida yurgan rivoyat-u afsonalarning aksariyati shoirga nisbat berilgan she'rlarning mazmuniga moslangan. Uni muxlislari avliyo darajasiga ko'targanlar. Rivoyatlar-u ularga ilova qilingan she'rlarini to'plab, **“Devoni Mashrab”, “Devonai Mashrab”, “Eshoni Mashrab”, “Eshoni Shoh Mashrab”, Eshoni Shoh Mashrabi devonai Namangoniy”** nomlari bilan kitoblar tuzganlar. Bular Mashrabning hayot yo'lini yorituvchi o'ziga xos qissalardir. Ular tarkibidagi rivoyatlar ham, she'rlar ham bir-biridan jiddiy farq qiladi. Qolaversa, ko'pdan-ko'p tazkiralarda, tarixiy asarlarda u haqda

ma'lumotlar bor. Ushbu xilma-xil manbalardan shoir tarjimai holining asosiy nuqtalarini shunday belgilash mumkin. Ismi – Boborahim, otasining oti – Mullavali. Taxallusi – Mashrab. “Mashrab” arabcha “ichimlik ichiladigan joy” va “fe'l, odat, xulq, tabiat” ma'nolarini bildiradi.

Mashrab 1665-yilda Namanganda Mulla Bozor Oxund degan kishining qo'lida shogird edi. U bu dargohda yetti yil shogirdlik qildi. 1671-yilda o'n sakkiz yoshida Samarqandga keladi, bir yilgina bu shaharda tahsil oladi. Namanganga qaytib, undan Qashqar safariga jo'naydi. Ofoqxo'ja ismli mashhur eshonga murid tushadi. Uning To'tibekach ismli kanizagini sevib qolganligi sababli pirining g'azabiga uchrab, erkakligidan mahrum etiladi va quvib yuboriladi. Shu tariqa, u o'n sakkiz yillik safardan keyin yana Namanganga qaytib keladi. Shu davrda onasidan ayriladi. Qalandar xirqasini kiyib, bir yil Movoraunnahr shahar va qishloqlarini kezib chiqadi. 1691-yilda esa, do'sti Pirmat Setoriy bilan yigirma yillik safarga ketadi. Va 1711-yilda Qunduzda Balx hokimi Mahmud Qatag'on buyrug'i bilan qatl etiladi. Mashrabning safar va sayr-u sayohatlari u haqdagi qissalarda ilohiylik rangiga bo'yalgan. Chunonchi, uning har bir hatti-harakati bashorat, qismat shaklida bir-biri bilan bog'lab berilgan.

Mashrab haqidagi eng muhim adabiy-beagrafik manbalardan biri, shubhasiz, “Qissai Mashab” (“Qissai Shoh Mashrab”) asaridir. Asar “Tazkirai qalandaron”da zikr qilingan Mashrabning darbadar hayotidagi doimiy hamrohi, muxlisi, qalandar shoir va qissanavis Pirmat Setoriy tomonidan

kitobat qilingan, degan tahminlar aytiladi. Bu kitobda Mashrabning joriy nashrlardagi she'rlaridan tashqari uning shaxsiyati, avliyosifat hatti-harakatlari, karomatlari, shakkokona qiliqlari haqida qiziq-qiziq hikoyalar, rivoyatlar, naqlar, latifalar ham keltiriladi. U Mashrab adabiy merosini, she'rlarini o'z ichiga olgan asosiy adabiy manbadir. Bu qissa 1995-yili yosh adabiyotshunos Erkin Musurmonov tomonidan "Rahimbobo Mashrab va uning badiiy adabiyotdagi talqini" mavzuida yoqlagan nomzodlik dissertasiyasida tahlil etilgan. Mashrabning qo'nimsiz, qalandarona hayoti va sarguzashtlari, imoni pokligi, sidqidildan Olloh vasliga erishishga intilishi, mutaffakir siymo sifatida shakllana borganligi oddiy xalq dilini rom qilgan. Maleho Samarqandiyning "Muzakkiri ul-ashob" tazkirasida shoirning nomi, tavallud joyi, shaxsiy va adabiy qiyofasi eslatib o'tiladi. Yana bir manba Ziyovuddin Bog'istoniyning "Tazkirai qalandaron" asaridir. Unda Mashrab rahnamoligidagi darveshqalandar shoirlar haqida fikr yuritiladi. Bu tazkira XX asrning 80-yillarida ma'lum bo'ldi. XVIII-XIX asrlar davomida maydonga kelgan ba'zi tarixiy asrlarda ham Mashrab to'g'risida ayrim lavhalarni, tarqoq ma'lumotlarni uchratamiz.

XIX asr oxirlari – XX asrda Boborahim Mashrabga bag'ishlangan bir qancha kitob va maqolalar yozildi. Mashrab haqidagi qissa hamda unda keltirilgan she'rlardan namunalar 1910-yili N. S. Likoshin tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, avval Toshkentda, so'ngroq Samarqandda nashr etildi. Arxeolog olim V. P. Vyatkin shoir hayoti, sarguzashtlari, qismati haqida maqola e'lon qilingan. O'zbek olimlaridan akademik G'ofur G'ulomning 1959-

yili bosilgan “Ikki Mashrab” maqolasi shoirning hayoti va adabiy merosini o’rganishda muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Unda Mashrab mavzui bilan bog’liq bir qancha munozarali o’rinlarga aniqlik kiritildi. Keying yillari ham birin-ketin o’zbek olimlaridan I. Sultonov, A. Abdug’afurov, M. Zokirov, N. Jumayev, E. Musurmonov va boshqalarning ilmiy tekshirishlari, adabiy portretlari, maqolalari e’lon qilindi; V. Rahmonov va K. Isroilov, J. Yusupov shoir asrlarining ancha mukammal nashrlarini amalga oshirdilar.

Xususan, mustaqillik yillarida Mashrab haqida yuzaga kelgan adabiy portret va ilmiy ishlarda uning ijodini yangicha talqin etish va xolisona baholash tendensiyasi kuchaydi. Shu bilan birga ta’kidlash lozimki, XX asrning 60-70-yillarida yaratilgan tadqiqotlarda Mashrab ijodidagi ilohiylik mayllari, tasavvufiy ehtiroslar tahliliga yetarli e’tibor berilmagan bo’lsa, endilikda, aksincha, uning adabiy merosini, diniy-tasavvufiy qarashlarini ko’proq shu mavzu atrofida talqin qilish, uning she’riyatidagi g’urbat, afsus va xalq hayotiga achinish, real his-tuyg’ular salmog’ini yetarli darajada ko’rsata olmaslik mayli ustundek. Holbuki, biz Mashrabning faqir bo’zchi oilasida dunyoga kelgan, avval murid, kayinchalik qalandar sifatida safarlarda hayot kechirgan, xalqning og’ir ahvolidan aziyat chekkan mehribon inson bo’lganligini, insonga xos dunyoviy hamda ilohiy tuyg’ularga ega majnunsifat shaxs ekanligini unutmasligimiz kerak. U Shoir – inson sifatida hamma narsa haqida o’ylagan, real inson sifatida fikr - mulohaza yuritgan. Boborahimning faqirona hayot kechirgan ota - onalari, o’g’ilning ibtidoiy maktab imomi bilan ilk uchrashuvi, yoshligidanoq majnunsifat, qalandarvash qiyofasi, g’ayritabiiy

harakatlari, so'zlari sinfdoshlari, ota-onasini, tevarak-atrofdagi xaloyiqni hayratga solganligi, Mullo Bozor Oxund, so'ng Ofoqxo'ja dargohidagi xoksor umri "Devonai Mashrab" qissasida rivoyat naqlar aralashhikoya qilingan. U Sharqiy Turkistonning ham hukmdori, ham diniy rahnamosi Hidoyatulla Ofoqxo'ja dargohida ancha yil murid bo'lib yuradi, uch yil o'tin teradi, yana uch yil meshkobda suv tashiydi. Bir po'stinni yeti yil yechmaganligini she'rida eslatib o'tadi. Boshiga tushgan hamma qiyinchilig-u riyozatlarga Haqqa yetishish uchun chidaydi. Pirovardida, taqdiri ilohiyning sinoviga duch kelib, Ofoqxojaning buyrug'i bilan qattiq tan jazosiga mahkum etiladi, pir dargohidan badarg'a qilinadi. Mashrabning jahongashta, qalandarona hayoti, sarguzashtlari boshlanadi. Uning ko'p shahar - qishloqlarni darbadar kezib, darvish - qalandar shoir sifatida so'fiyona g'oyalarni targ'ib etganligi ma'lum.

Mashrab she'rlari tarkibida "Yoshi yetmish birga kirgan bandai raddi falak" misrasining keltirilganligini hisobga olib, adabiyotshunos Muhsin Zokirov shoir tavalludini 1640-41 yil deb taxmin qilgan edi. Biroq, "Devonai Mashrab"ning bir qancha qo'lyozmalarini va tazkiralardagi ma'lumotlarni sinchiklab o'rgangan J. Yusupov Mashrab asarlarining 1990 yilgi nashriga yozgan so'nggi so'zida uning tavallud yilini 1653 yil deb hisoblaydi. Bunday ma'lumot XIX asr tazkiranavislaridan Abdulmutallib Fahmiyning tazkirasida zikr etilgan ekan. J. Yusupovning yozishicha, bu sanaga ishonishga yana bir dalil shundan iboratki, u Ziyoviddin Bog'istoniyl "Tazkirai qalandaron"da eslatib o'tgan: "Andog' ma'lum bo'lmishkim, Mashrabi Valiyulloh qatli muddatinda tavalludlaridan ellik sakkiz sana kechub erdi" zikridir. Demak,

Mashrabning tavallud va qatl sanalari 1653-1711 melodiy yillar deyish mumkin.

Boborahim Mashrab haqidagi yangi ma'lumotlardan yana biri uning chet ellarda, jumladan, Saudiya Arabistonida ham bo'lib, Makkani ziyorat qilganligidir.

So'nggi yillari amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Boborahim Mashrabning Namangandagi ilk ustoz Mullo Bozor Oxund ham, uning Qashqardagi piri - murshidi Hidoyatulla Ofoqxoja ham o'z zamonalarining pok ko'ngil, avliyosifat diniy arboblari bo'lganlar. Ularning yosh Boborahimga munosabatlarida ortiqcha zulm bo'lmagan. Bu holni Mashrabning murid va shoir sifatidagi quyidagi e'tiroflari tasdiqlaydi:

Ma'rifatni gulzori Mullo Bozor devona,

Oshiqhlarni sardori Mullo Bozor devona.

Yo'qtur aslo kinasi, bahri urfon siynasi,

Nuri haq oyinasi, Mullo Bozor devona.

Boborahimning majnunvash zukko tabiatini anglab yetgan Mullo Bozor Oxund uning niyatlariga qanot bag'ishlab, o'sha zamonning mashhur diniy rahnamolaridan biri sifatida Sharqiy Turkistonda dovrug' yoygan Ofoqxoja dargohiga yo'llagan. U chidam bilan bu murshidning - Eshonning ta'limini oldi, riyozatlarga, xokisorliklarga chidadi. Uning yaratuvchi ilohiy kuchga bo'lgan e'tiqod va ishonchi kuchayib bordi.

Bir baytida yosh Boborahim:

Ofoqxojam kim suyib oting Mashrab dedilar,

Bo'sag'angda o'lurman menda hasrat qolmadi, -

deb yozadi. Mashrab she'rlari ichida uning Ofoqxojaga minnatdorligini, alohida hurmatini eslatuvchi misralar yana uchrab turadi:

Har nafasiki menda bor bo'ldi, Ofoqxojam,

Bo'lmasa bir quruq yog'och dashtida ko'hsor o'zum.

Na chora, shunga qaramay Mashrab hayotida Ofoqxoja e'tiqodiga to'g'ri kelmaydigan noma'qul harakat sodir etilib, u majruh qilinadi. Parning dargohidan quviladi. Shunga qaramay, Ofoqxoja eshonning Sharqiy Turkistondagi diniy mavqei va hukmronligi tarixini o'rgangan tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Mashrab o'z umrining oxirigacha Ofoqxoja va vorislaridan yuz o'girmagan, ularga nisbatan shakkoklik qilmagan.

Uning pir dargohidan badarg'a etilib qalandalarga qo'shilib, o'z aqidalarini elma-el, yurtma-yurt ochiq tashviq qilib yurishi shoir asarlarining ommalashishiga, unga e'tiqod bog'lagan xos kishilarning ko'payishiga olib kelgan. Chunki o'sha davrda ancha ildiz otgan va e'tiqodli insonlar diqqat-e'tiborini o'ziga tortgan qalandarlik Mashrab uchun katta imkoniyat edi. U shu imkoniyatdan yaxshi foydalanib, mutafakkir, so'zamol shaxs sifatida hatto qalandalarning rahnamolaridan biri bo'lib qoldi. Ikkinchi tomondan, qalandar bo'lish, bu yo'lga kirish Haqning muhabbatiga sazovor bo'lishning

bir vositasi edi. Bu Mashrabning qalandarlik haqidagi maxsus she'rida ravshan ifodalanganligini ko'ramiz:

Murodingga yetay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l,

Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Riyozatsiz bo'lay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Bu taqvodin kechay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Haqiqatni ochay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

U Namangan-Xo'jand-Toshkent-Samarqand-Buxoro-G'uzor-Istanbul-Makka-Madina-Xorazm-Kaspiy bo'yi hududlarida bo'lib, o'zining isyonkorona, xalqchil she'rlari bilan shuhrat qozondi, avliyosifat, valiulloh shaxs sifatida hurmat - ehtirom topdi. U hamma joyda kishilarni o'zining donishmandligi, so'zga chechanligi, Ollohga bo'lgan cheksiz e'tiqodi, haqgo'yligi, shoirlik, hofizlik quvvasi, karomatgo'yligi bilan lol qoldiradi, vali kishilar qatorida e'zozlanadi. Haq ishq bilan yonadi. Oqibat – u o'n sakkiz yillik ayriliqdan so'ng Namanganga qaytib mushtipar onasi va yolg'iz singlisi bilan diydor ko'rishadi.

Ana shunday mutafakkir, jasoratli shaxsning boshiga ham Mansur Halloj va Nasimiyning boshiga tushgan qora kun tushadi. U 1711-yili chalasavod, xushomadgo'y shaxslarning chaquvi, ig'vosi bilan dorga osib o'ldiriladi. Uni qatl ettirgan Mahmud Qatag'on ham Mashrab fojiasidan uch kun o'tgach, dahshatli zilzila tufayli halok bo'ladi. Mashrabning qabri Balxga yaqin Ishkonmish qishlog'idadir. 2003-yil oxirlarida Bobur xalqaro ekspeditsyasining

vakillari Mashrab marqadini borib ko'rdilar. Uni ta'mirlash, ziyoratgohga aylantirish tadbirlari ishlab chiqiladi.

Adabiy merosi. Qayd etib o'tilganidek, Mashrabning adabiy merosi an'anaviy she'riy devon holida yetib kelmagan. U o'tmishda noma'lum muxlislar tomonidan tuzilgan xalq kitoblari tili va uslubini eslatuvchi „Devonai Mashrab“ yoxud „Qissai Mashrab“ nomlari bilan ma'lum bo'lgan manba orqali yetib kelgan. Mashrabning she'rlari XVII asrdan keyin tartib berilgan bayozlarda, qalandar shoirlar she'rlaridan iborat „Tazkirai qalandaron“ asarida ham uchraydi. Shunday manbalar asosida 1958-yildan buyon uning she'rlari nashr qilinib keladi. Uning hajman ancha katta va devon deb shartli nomlangan kitobi 1990-yili bosildi.

Mashrabning adabiy - ijodiy merosida diniy va tasavvufiy g'oyalar ham o'sha asrlarda ayniqsa keng tarqalgan qalandarlik tariqati g'oyalari ham sezilarli o'rin egallaydi. Shoir islom ta'limotidagi asosiy qoidalarni, farzu amallarni qabul qilgani holda, ba'zilariga qarshi ochiqdan-ochiq salbiy munosabatini ham asarlarida ifoda etadi. Ularga mensimaslik, shakkoklik bilan qaraydi, ba'zan ular ustidan kuladi ham. Buning asosiy sababi shoirning quyidagi shoh baytidadir:

Bir xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,

Gul agar bo'lmasa ilkimda tikonni na qilay?

Shu jihat uning dunyoqarashini ko'p mutasavvuflarnikidan ajratib turuvchi asosiy jihatdir. Undagi yolg'iz xudoni tan olish e'tiqodi o'sha davr

dindorlari uchun g'alat tuyulgan, ular Mashrab e'tiqodining tub mohiyatiga tushunib yetmaganlar. Mashrabning devonasifatligi, qalandarligi, hech narsadan qaytmasligi, "quvvai jazava"si uning shahid bo'lishiga sabab bo'lgan.

Adabiyotlar tarixida bunday qaysar aql egalari ko'p bo'lgan emas. Mashrab Mansur Halloj, Nasimiy, Naimiyning o'zbek mumtoz adabiyotidagi davomchisidir.

Mashrabning adabiy merosi yuzasidan muhim tadqiqotlar yaratgan A. Abdug'afurovning asosli qayd etishicha, shoir adabiy merosidagi diniy mazmun va tasavvufiy yo'nalish ruhidagi she'rlarning ko'pchilik qismi uning Ofoqxoja dargohida murid bo'lib yurgan yillarida pirining targ'ibot saboqlari ta'sirida yaratilgan. Uning navqiron yigit sifatida Xoja tasarrufidagi kanizakka qattiq ko'ngil qo'yganligi, ishqu oshiqlik bedodliklarini boshdan kechirganligi tufayli o'ta sho'x, dilni erkalovchi sevgi-muhabbat kechinmalaridan tug'ilgan she'rlari ham shu yillari yaratilgan bo'lishi ehtimol. Mashrabning sarsonlik, qalandarlik yillaridagi she'rlari yo'l-yo'lakay turmush, qismat tug'dirgan qiyinchiliklar, ulardan qutilishning birdan bir iloji Olloh ne'matiga vosil bo'lishni kuylashdan iborat bo'ldi. Shu ma'noda Mashrab adabiy merosida muayyan evolyutsiyani kuzatish mumkin.

Mashrab she'riyatining asosiy janrlari g'azallar, murabbalar, muxammaslar, mustazodlar, musaddas va musabbalardan iborat

Chindan ham Mashrabning yaratuvchi Haq vasli oldida Ka'bani ziyorat qilish, do'zaxu jannatning tashvishini tortish behuda ekanligi haqidagi isyonkorona

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq na kerak,

Qolgan Ibrohimdan ul eski do'konni na qilay -

Matla'li g'azali bilan Navoiyning ikki asr ilgari yozilgan:

Gulshani ko'yungdin ayru bog'l rizvonni netay?!

Boshima gar gul sochar – sensiz gulafshonni netay?!

Matla'li g'azali mazmunida, ruhida hamohanglik yaqqol ko'zga tashlanadi. Mashrabning darveshona, devonavor nidolari barilla bor nafasi bilan jaranglovchi, kuchli mubolag'alarda uning Ollohga bo'lgan sadoqati va intilishini ifodalovchi

Agar oshig'lig'im aytsam, kuyub jonu jahon o'rtar!

Bu ishq sirin bayon etsam, gahi ul xonu mon o'rtar.

Matla'li g'azali bilan Navoiyning

Men bir o'tdurki, gar dam ursam, aflok o'rtanur!

Asrasam ko'nlumda, jonu jismi g'amnok o'rtanur-

Matla'li g'azali oralarida ham, shubhasiz, g'oyaviy-fikriy, shakliy yaqinlik mavjud. Mashrab o'zbek mumtoz shoirlari ichida ustod Navoiydan tashqari, Mavlono Lutfiy, Bobur ijodiga xos go'zalliklarni ham kamoli diqqat-e'tibor bilan o'rganib, ularning ba'zi she'rlaridagi muhim jihatlarni taraqqiy ettirgan

shoirdir. Mashrab ijodi, ayniqsa, Mansur Halloj, Imomiddin Nasimiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy asarlari bilan g'oyaviy-fikriy hamohanglik kasb etadi: hurufiylik, panteistik qarashlyr ifodasida Mashrab bu daho san'atkorlar, so'fiy shoirlar ijodidan kuchli ta'sirlangan. Mashrabning g'azallari va muxammaslari ichida ularning she'rlariga yozilgan go'zal javobiyalar mavjud.

Mirkarim Osimning "Singan setor" asarida Mashrab timsoli haqida gapirsak, atoqli tarixnavis adib Mirkarim Osim uzoq o'tmishimizni, hozirgi dorilamon kunlarimizni, ertangi istiqbolimizni ana shunday sof, beg'ubor ko'rishni orzu qilar, zamonlar orasidagi vorisiylik, progressiv an'analarni hamma davrlarda ham insoniyatning eng asosiy muammosi bo'lgan tinchlikda, tabiat va jamiyat o'rtasidagi uzviy birlikda, xalqlar o'rtasidagi do'stlikda deb bilardi. Mirkarim Osimni xalqimizning bir necha avlodi yaxshi taniydi. Uning asarlaridan eng yaxshilari qariyb yarim asrdan buyon o'rta maktab darsliklaridan o'rin olib, yangi-yangi avlodlar bilan ona tariximiz, boy o'tmish madaniyatimiz, nurga, ziyoga intilgan vatanparvar ajdodlarimiz o'rtasida mustahkam ko'prik bo'lib, tarix bilan hozirgi kunlarimizni bog'lab turibdi. Bu asarlar xalqimizning ming- ming yillar davomida shakllangan an'analari, urf-odatlari, ilg'or udumlarini ko'zga ko'rinmas nozik ip bilan bugungi sotsialistik voqeligimizga, kommunistik ideallarimizga tutashtirib kelmoqda. Yoshlarimizda Vatanga muhabbat, ilm-fan, madaniyat tarixiga hurmat, adolatsizlik, bosqinchilik, shovinistik qarashlarga nafrat, dunyoda

mustahkam tinchlik uchun kurash, gumanizm hissini tarbiyalab, kamol toptirishga xizmat qilmoqda.

Mirkarim Osim ijodida tarixiy-beografik mavzu katta oqimni tashkil etadi. Uning “Singan setor” qissasi shu oqimning sara asarlari toifasiga kiradi. Muallif o‘z qahramonlari xarakterini ochib boraverar ekan, yosh kitobxoniga qahramonining eng xarakterli qirralarini, ya’ni hayotda to‘g‘ri yo‘lni topa bilish, ilm-hikmatga sodiqlik, jo‘shqin vatanparvarlik, insoniy g‘urur kabi fazilatlarni ulug‘laydi.

Mirkarim Osim xarakter dinamikasi tahlilidan ko‘ra voqea va syujet dinamikasiga, tarixiy davr tasviri mahalliy koloritni ifodalovchi manzaralar badiiy tahliliga ko‘proq ahamiyat berish yo‘li bilan qahramon ichki dunyosini ochib boruvchi adib. Uning asarlarida qahramonning chuqur iztiroblariga berilishi, tavba-tazarru qilishi, fikr-hayolga g‘arq bo‘lishi kabi holatlarini kam uchratasiz. Biografiyasi qalamga olinayotgan tarixiy shaxs hayotidagi eng qiziqarli voqealar tizmasidan muddao avvalo mazkur zamon, qolaversa, ulug‘ mutafakkirlar xarakterini ochib berish, ularning hayot va ijod yo‘li haqida, prinsiplari, izlagan haqiqati haqida hozirgi zamon kitobxoniga to‘g‘ri, ayni paytda qiziqarli tasavvur berish bosh vazifadir.

Yozuvchi tarixiy-biografik asarlarini bosh qahramonlari- jahon fan-madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkir, allomalar. Shu tufayli yopzuvchidan tabiiy ravishda, o‘z asarida muayyan olim yoki ijodkorni ilm ustida, ijod jarayonida ko‘rsatish, uning kashfiyotlariga “badiiy baho berish”

talab qilinadi. Shu jihatdan qaraganda Mirkarim Osim mushkul ilmiy kashfiyotlarini soda, oson tushuntirish, tasvirlash ustasi hamdir.

Ma'lumki, 70-yillarda ilmiy adabiyotda ham, badiiy adabiyotda ham Mashrabshunoslik ancha jonlandi. Bu murakkab, foje taqdirli vatandoshimiz qismati va uning isyonkor ijodiy yo'li ko'pchilikni qiziqtirib keladi. Mirkarim Osim Mashrab to'g'risida bir necha biografik hikoya e'lon qildi. Oradan uch-to'rt yil o'tib, adib turli gazeta-jurnallarda e'lon etilgan hikoyalarini biriktirib, to'ldirib, "Singan setor" nomli qissaga aylantirdi. Mashrab obrazi bor murakkabligi va fojeiy taqdiri bilan mohirona ochib berilganligi jihatidan qissa ahamiyatlidir. Bu qissada ham Mirkarim Osim o'z traditsion usuli-qahramoni hayotini eng karakterli lavhalari misolida uning butun boshli biografiyasini chizib berish yo'lidan boradi. Bu asar qahramonining hayoti butun umri sarsonlik-sargardonlikda, turli favqulotda voqea-hodisalar girdobida kechgan. Ammo Boborahim Mashrab o'z panteistik ruhi, dini islomning mantiqsiz o'rinlariga qarshi oshkora isyoni va qalandarona yo'nalishi bilan o'tmish madaniyatimizning boshqa qahramonlaridan tubdan farq qiladi. U o'ziga xos faylasuf, realist sifatida ayricha nazariyasi va amaliyotiga ega. Din va diniy aqidalarga qarshi favqulodda jasorat bilan kurashgan va buning natijasida og'ir jismoniy-ruhiy jazoga muhtalo bo'lgan. Boborahim Mashrab haqidagi bu asar ba'zi jihatlari bilan G'afur G'ulomning "Shum bola"sini esga soladi. Shuni ham aytish kerakki, bir umr "jiddiy" yozuvchi bo'lib kelgan Mirkarim Osim yarim asrlik ijodiy yo'li mobaynida ilk marta qahramon karakteri mantiqiga ko'ra yumorist-satirik adib sifatida namoyon bo'ldi. Butun qissa davomida

Mashrab, hamrohi Shodavlat Pirimast, iti Qitmir bilan bog'liq voqealar bir qadar yumoristik ohangda tasvirlanadi. Adib Boborahimning boshidan kechirganlari, devonafe'l qiliqlari mohiyatini kitobxonga badiiy dalillab bergan.

Mashrab yoshligida machit hovuzida cho'milayotganida, bu qutlug' dargohda yalang'och cho'milish uyatligini aytib tanbeh bergan mullaga: "xudo hammani yalong'och yaratgan, o'z bandasini qanday yaratgan bo'lsa, o'sha qiyofada ko'rsa, buning nimasi gunoh?!" deydi. Boborahimning barcha "kirdikorlari" ostida katta hayotiylik, mantiq, haqiqat, dinning sohtaligiga, xalqning ko'ziga cho'p solishiga qarshi kuchli isyon yotadi. Ofoqxoja tomonidan hiyla bilan Toshkentga, Hojai Nurning "jon taslim qilishiga ko'maklashish" uchun yuborilgan Mashrabga Qoshqardan hamroh bo'lib kelgan hamqishlog'l Shodavlat Pirimast: "nega eshakka teskari o'tirib oldingiz, ahir mullayu eshonlar xaloyiqqa, Mashrab o'taketgan devona ekan, anga ishonmanglar, demaydularmu?" deya hayratlanganida, "Shuncha faqiru fuqaro menga ergashib kelayotir, qanday qilib alarga orqa o'girib borayin?" deya javob qiladi. Tag'in u Pirimastga: "Senga bir gapni aytib qo'yay, devona bo'lmaguncha bu zamonda haq so'zni aytib bo'lmas", deydi. Haqiqatdan ham, isyonkor shoir shu fikrini badiiy ifodalab, " Qalandar bo'l" radifli she'rida, Mashrab oz bo'lsa-da xalqning ko'zini ochish, sal bo'lsa-da haqiqatni qaror toptirish uchun "qalandar" bo'ladi. Bugina emas, shoir tasavvuf qalandari sifatida o'z ijodida butun boshli panteistik falsafiy sistemani izhor etadi. Adib turli personajlarning xarakteristikalariga Mashrab she'rlaridan

misollar tanlab muvaffaqiyatga erishgan. Ayniqsa, uning “Shayton bilan jangi jadal” qilib Toshkentlik “dinu tariqat ustuni” Hojai Nurga bag’ishlangan g’azali, iti Qitmirga atalgan she’ri va boshqa ko’pgina satrlar o’z mohiyatiga ko’ra muvaffaqiyatli tanlangan. Shu jihatdan Mashrab- inson obrazi Mashrab-shoir obraziga hamohang kelgan. Yozuvchi butun umri g’urbatda o’tgan isyonkor shoir hayotida yilt etgan nurli faslni- Qashqarda, Ofoqxoja dargohida go’zal Ro’zixon bilan uchrashuvini, ikki yosh o’rtasidagi beg’ubor muhabbat tasvirini ham shoirona ilhom bilan tasvirlaydi. Adib Mashrab obrazini isyonkor shoir xarakterining hayotiyiligini ta’minlovchi yaxshi vosita topgan. “Singan setor” mazmuni- kuyga, hayotbahsh ohanglarga to’la, xalqchil soz ijtimoiy tuzum nobopligi tufayli sindi, barbod bo’ldi, deyilmoqchi. Ayni paytda shoir chekkan jismoniy-ruhiy jazo ham ko’zda tutilyapti (Mashrab Ofoqxoja tomonidan erlik xususiyatidan mahrum qilingan.) Asardagi ichki sarlavhalardan biri “Ihlos tuzog’i” dab ataladi. Boborahim katta ihlos bilan mashhur ofoqxoja huzuriga boryapti. Ammo bu ihlos ortida ko’zga ko’rinmas tuzoq yotibdiki, u yosh yigitning umrini xazon qiladi, deyilmoqchi. “Singan setor” asarida Mashrab timsoli hayotda qanday bo’lsa shunday keltirilgan. Asarda Mashrabning dorga osilish sahnasi judayam ta’sirli berilgan.

“Singan setor” asaridan parcha:

-Sen yurtni bulg’atding, Balx aholisining qonini so’rib, turar joylarinia axlatxonaga aylantirding...

Birdan:

- Jallod!- deb baqirib yubordi xon.

- Xanjarim qonga tashna!- dedi belbog'iga oybolta qistirgan, chap tomonida xanjari osilib turgan qizil choponli, davangir biro dam hozir bo'lib.

- Haddidin oshib, xudolik da'vo qilg'on, tangrining yerdagi soyasini toptamoqchi bo'lg'on mana bu yalangoyoqni dorga os!

- Bosh ustiga, -dedi jallod ko'zlarini chaqnatib. Keyin Mashrabga qarab boshi bilan eshikni ko'rsatdi.

- Sen kabi zolimdin rahm-shafqat so'ramaymen, oyog'inga yotib yalinmaymen! – dedi Mashrab xonga nafrat bilan qarab. – Ammo bilib qo'y, sening ham kuning bitgan. O'rinsiz to'kilgan qonlar, navqiron Muqim Sultonning huni nohaq ketmas.

Mahmudxon titrab jallodga o'shqirdi:

- Yo'qot ko'zimdin!

Ismatilla Abdullayev. Yana Mashrab haqida. 1991 yil 13-aprelga respublika Mashrabshunoslar FA ijtimoiy fanlar bo'limiga taklif etildi. Lekin qandaydir tadbir bo'lib yig'ilish 15-aprelga qoldirildi. 13-aprelda samarqandlik mashrabshunos J. Yusupov Toshkentga keldi. U Mashrab Namanganda tug'ilgani to'g'ri, lekin 1640-yil emas, 1653-yil degan fikrni aytdi va shu haqda bir varaq qog'ozga yozib menga tashlab ketdi. Xatda

Mashrabning Namanganda tug'ilganligi ilmiy dalillar asosida qayd etilar ekan, shoir tug'ilgan yili 1653-yil deb ko'rsatilgan. Xatda yana shoir 1664-1668 yillari Mulla Bozorda o'qigan. 1669-1670 yillari Samarqandga sayohat qilgan, 1671-90 yillari Qashg'arda safarda bo'lgan keyin Movorounnahr safari deb ko'rsatilgan. 1990-yil 15-aprel kuni O'zFA ijtimoiy fanlar bo'limidagi yig'ilishda mashrabshunoslar H. G'ulom, A. Qayumov, A. Hayitmetov, A. Abdug'afurov, M. Zokirov, I. G'afurov, H. Muhammadxo'jayev, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi bo'lim boshlig'I M. Sa'diy qatnashdi. Men ham ishtirok etganman. Yig'ilishda Mashrab hayotiga oid ba'zi chalkashliklar haqida fikrlar aytilib, shoir 1640-yili Namanganda tavallud topgan va 1711-yili Balxda dorga osilgan; uning tavalludiga 350 yil to'lganligi munosabati bilan yubiley tantanalari, mashrabxonlik kunlarini yuksak saviyada o'tkazish ma'qul deb topilsin, degan qaror qabul qilindi.

Men yig'ilishda J. Yusupov xatini o'qib berdim. Uning Mashrab 1653-yili tug'ilgan degan fikrini hech kim ma'qullamadi va ilmiy asossiz, deb topildi. Yig'ilish haqidagi suhbat "O'zbekiston san'ati va adabiyoti"ning 1991-yili 17-may sonida M. Sa'diy tomonidan e'lon qilindi. Shundan keyin yubileyoldi respublika matbuotida chop etilgan hamma maqolalarda Mashrab 1640-yili Namanganda tug'ilgan deb yozildi. 1992-yil Alisher Navoiy nomidagi katta teatrda shoir tavalludining 350 yilligi shu ma'lumotlar asosida tantanali nishonlandi. Bulardan J. Yusupov xabardor bo'lishi kerak. Keyinchalik Mashrabning yirik falsafiy-axloqiy asarini eng ishonchli qo'lyozmaga solishtirib, nashrga tayyorladim, bu keng so'z boshi va izohlari bilan 1994-yili

“Fan” nashriyotida bosilib chiqdi. Shoirning “Kimyo” kitobi (“Namangan” nashriyoti, 1999), “Alifni dilga jo qilmoqni bismillohdan o’rgandim” nomli nashr etilmagan she’rlar to’plami (“Namangan” nashriyoti, 1999), “Mashrab hikmatlari” risolasini (“Namangan” nashriyoti, 1999) chop etdik. 1995-yili E. R. Musulmonqulov “Rahimbobo Mashrab va uning badiiy adabiyotdagi talqini” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. M. Hoshimxonov ham Mashrab dunyoqarashi haqida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi va uning “Mashrab va O’rta Osiyo ijtimoiy fikr taraqqiyoti” (Toshkent, 1994) kitobi nashr etildi. Bulardan tashqari, an’anaviy mashrabxonlik munosabati bilan shoir hayoti va ijodiy faoliyati haqida ko’plab ilmiy-ommabop maqolar jurnal, to’plam va gazetalarda bosilib turibdi. Bularning hammasida Mashrab 1640-yili tug’ilganligi qayd etilgan.

Nihoyat , “Yozuvchi” gazetasining 1998-yil 15 va 28 avgust sonlarida Jaloliddin Yusufiy (Yusupov)ning “Uni Devonai Mashrab derlar”... nomli katta maqolasi e’lon etildi. Muallif keying vaqtda o’zi mutolaa qilgan manbalar asosida Mashrab hayoti va ijodi haqida anchagina yangi fikrlarni aytib o’tgan, shoirning she’rlaridan iqtiboslar keltirib, ularni tahlil qilgan. “Mehribonim, qaydasan” to’plamida aytilgan ba’zi fikrlar qisman takrorlab ham o’tilgan. Bu maqolani keyingi vaqtda mashrabshunoslikka qo’shilgan yangi ijod mahsuli sifatida tan olish kerak. Ammo maqolada yo’l qo’yilgan ba’zi chalkashliklar haqifa mulohaza yuritishni lozim topdik. Muallif shoirning o’zi nashr etgan “Mehribonim, qaydasan” (Toshkent, 1990) devoniga yozilgan so’ngso’zda Mashrab tavalludini 1653 yil deb ko’rsatgan va bu bilan shu paytgacha

bo'lgan har xil qarashlarga chek qo'yilganiga ishora qilar ekan, yozadi: "Ammo 1994-yili "Fan" nashriyotida chop etilgan Mashrabning "Mabdai nur" nomli kitobiga yozilgan muqaddimada Boborahim Mashrab hijriy 1050 (milodiy 1640) yili Namangan shahrida kambag'al bo'zchi Boborahim oilasida dunyoga keldi deb qayd etilgan. Ko'pgina tadqiqotchilar shoirning muxammasida aytilgan:

Yoshi yetmish birga kirgan bandai raddi falak,

Moru kajdumlar bilan to'lgan dilida raybu shakk-

baytidagi <<etmish bir yosh>>ga yopishib oldilar va uni har gal 1640 yilda tug'ilgan deb yozishadi. Bu taxmindan boshqa narsa emas".

Bu fikrni isbotlash uchun J. Yusufiy "Devonai Mashrab" qo'lyozmalarida "Yoshi oltmish birga kirgan", "Yoshi to'qson birga kirgan" kabi bitiklarning mavjudligini qayd etgan. Buni biz "Qissai Mashrab"ning biron-bir nusxasida uchratmadik. M. Zokirov tomonidan "Sharq yulduzi"da parchasi chop etilgan "Tazkirai qalandaron" asarida "Hazrati Mashrab mavtlari ayyomida umrlaridan ellik sakkiz sana kechib erdi" degan jumlaning J. Yusufiy dalil qilib ko'rsatgan. O'zFa da bo'lib o'tgan yig'ilishda o'sha "Tazkirai qalandaron"ni birontamizga ko'rsatish haqida M. Zokirovdan so'raganimizda: "Men 25 yil avval birovdan olib o'qiganman, u kishi suv toshqinida ko'krigidan tushurib yo'qotgan",- dedi. "Sharq yulduzi" manbani ko'rmay, hech qayerda yo'q narsani e'lon qilganini yig'ilishda ta'kidlagan edik. Hamma kitob va maqolalarda Mashrab tavalludi 1640 yil ko'rsatib kelingani,

respublikamizning taniqli mashrabshunoslari-akademiklari, fan doktorlari va fan nomzodlari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilish qarori "taxmindan boshqa narsa emas", faqat J. Yusufiy fikri haqiqatmi? Akademik Vohid Abdullayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" akademik nashriga yozgan yirik ilmiy maqolasi va boshqa bir qancha asarlar, akademik M. Xayrullayev nashrga tayyorlagan "Buyuk siymolar, allomalar" to'plamining uchinchi kitobi va boshqa yuqorida qayd etganimiz olimlarning asarlarida 1640 (1050)yil ko'rsatilgan, ularni rad etish, o'jarlik bilan o'z fikrida turib olish ilmiy odobdan emas. Jaloliddin Yusufiy maqolasida Mashrabning ancha yangi she'riy parchalari diniy tasavvufiy nuqtai nazaridan yangicha tahlil qilingan. Bu, albatta, mustaqilligimiz sharofati va tahsinga sazovordir. Jaloliddin shoirning 3769 misradan iborat yangi devonini tayyorlab qo'ygani aytilgan, u kishiga devonni chop etishida muvaffaqiyat tilaymiz. Biz nashr etgan Mashrabning hozirgacha bosilmagan g'azal, muxammas, musaddaslarini o'z ichiga olgan "Alifni dilga jo qilmoqni bismillohdin o'rgandim" to'plamini, "Kimyo" asari va "Mashrab hikmatlari" risolasini ham Jaloliddin ko'zdan kechirib qo'ysalar foydadan holi bo'lmas edi

Xulosa qilib aytganda, Mashrab she'riyati mazmun teranligidan tashqari, badiiy jihatdan ham yetuk, mukammaldir. U so'zni g'oyat nozik his etadi, ohangni yaxshi ilg'aydi, tashbih-majozlardan samarali foydalanadi. Shoir she'riyati, yuqoridagi misollardan ma'lum bo'lganidek, millionlab kishilar

qalbidagi ezgu va olijanob tuyg'ularni shunchaki foydalangan emas, balki baland pardalarda tarannum qilgan. Shu sababli ham bu asrlar ardog'ida keladi..